



PEDAGOGIKA SHAXS TARBIYASI VA RIVOJLANISH TO'G'RISIDAGI FAN SIFATIDA

Muratova Karomat Shavkat qizi

Abdurahmonov Azamat Kamolovich

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

muratovakaromat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika fani doirasida shaxs tarbiyasi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Pedagogika insonning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganadigan fan sifatida qaraladi. Shaxs tarbiyasi va rivojlanishi oilaviy, maktabgacha, maktab va oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu maqolada tarbiya shakllari, rivojlanish bosqichlari hamda pedagogik yondashuvlarning ta'siri tahlil qilinadi. Pedagogik ta'limotlar asosida inson ma'naviy, intellektual va jismoniy jihatdan kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar va metodlar muhokama qilinadi. Bundan tashqari, maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullar asosida shaxsning rivojlanishiga ko'rsatiladigan ta'sir masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, shaxs tarbiyasi, rivojlanish bosqichlari, ta'lim, tarbiya metodlari, pedagogik yondashuvlar, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, innovatsion ta'lim, interaktiv usullar, shaxs shakllanishi, o'z-o'zini rivojlantirish, o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyalari

KIRISH Pedagogika insonni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ilmiy fan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlaridan biri shaxs tarbiyasi va rivojlanishidir. Har bir insonning tarbiyasi va rivojlanishi ijtimoiy muhit, oila, ta'lim tizimi hamda pedagogik yondashuvlarga bog'liq bo'ladi. Ushbu maqolada shaxs tarbiyasi va uning rivojlanish bosqichlari, pedagogik yondashuvlar hamda zamonaviy tarbiya metodlari tahlil qilinadi.

Shaxs tarbiyasi va uning asosiy jihatlari. Tarbiyaning asosiy vazifasi - insonni ijtimoiy hayotga tayyorlash, unda ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik va jismoniy sifatlarni shakllantirishdan iborat. Shaxs tarbiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Aqliy tarbiya - insonning intellektual rivojlanishiga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonlari. Bu jarayonda mantiqiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ilmiy



qarashlarni shakllantirish muhim sanaladi.

2. Axloqiy tarbiya - jamiyatda to'g'ri xulq-atvorni shakllantirish, ma'naviyat va odob-axloq me'yorlarini singdirish.

3. Estetik tarbiya - insonning san'at va go'zallikka bo'lgan munosabatini rivojlantirish.

4. Mehnat tarbiyasi - shaxsni kasbiy tayyorlash, mehnatsevarlik fazilatlarini singdirish.

5. Jismoniy tarbiya - sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sport bilan shug'ullanishni rag'batlantirish.

Shaxsning tarbiyalanishi va rivojlanishi turli bosqichlardan o'tadi: Maktabgacha yosh (0-6 yosh) - bolaning ilk ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi, nutq rivojlanadi va atrof-muhitni anglash jarayoni boshlanadi. Maktab yoshi (7-18 yosh) - intellektual va ma'naviy shakllanish jarayoni faollashadi, mustaqil fikrlash va o'zligini anglash bosqichi kechadi. Yoshlik davri (19-25 yosh) - kasbiy tayyorgarlik, mustaqil hayotga kirish bosqichi, jamiyatda o'z o'rnini topish jarayoni. Voyaga yetganlik davri (25 yoshdan keyin) - jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanish, mehnat faoliyati va oilaviy munosabatlarni olib borish. Pedagogik yondashuvlar va metodlar. Zamonaviy pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishiga oid turli yondashuvlarni qo'llaydi:

An'anaviy pedagogika - klassik ta'lim usullari asosida shaxsga ta'sir o'tkazish, innovatsion pedagogika - ilg'or texnologiyalar va interaktiv usullarni qo'llash (masalan, STEAM, CLIL metodlari), individual yondashuv - har bir shaxsning psixologik xususiyatlariga asoslangan tarbiya metodikasi, kooperativ ta'lim - guruh bo'lib ishlash orqali shaxsning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish - shaxsga mustaqil o'qish, o'rganish va o'z ustida ishlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradigan yondashuv.

Shaxs tarbiyasi va rivojlanishi pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonning intellektual, ma'naviy va jismoniy kamolotiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganadi. Tarbiya jarayoni oiladan boshlanib, ta'lim muassasalarida davom etadi va inson butun umri davomida rivojlanishda davom etadi. Zamonaviy pedagogika innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlar asosida shaxsni har tomonlama tarbiyalashga yo'naltirilgan. Shaxs tarbiyasi nafaqat bilim berish, balki insonda ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qadriyatlar va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Umuman olganda, shaxs tarbiyasi va rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Shu sababli pedagogik tadqiqotlar va ta'lim metodlarini yanada takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.



Pedagogika qadimgi yunoncha — tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o'quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o'rganiladigan o'quv predmeti ham pedagogika deb yuritiladi.

Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy pedagogika bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan shug'ullanishni ko'zda tutadi.

Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi.

Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxsni tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi.

Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, matematika va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi.

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarini shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyani tashkil etish, uyushtirish va uni boshqarish singari tashkiliy-pedagogik ishlar qonuniyati pedagogikaning maktabshunoslik sohasi



tomonidan ishlab chiqiladi. Pedagogika hamisha muayyan yoshdagi, ma'lum hayotiy va aqliy tajribaga ega bo'lgan kishilar bilan ish ko'radi. Shuning uchun ham pedagogikaning qonuniyatlarini belgilashda ta'lim-tarbiya oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli pedagogika oila pedagogikasi, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, maktab pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limi pedagogikasi kabi qismlarga bo'linadi va umumlashtirilgan holda yosh pedagogikasi deb ataladi.

Ayrim o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari va usullarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogikaning sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Ammo bu xil chegaralanish anchagina shartlidir. Chunonchi, adabiyot o'qitish metodikasi didaktikaga nisbatan xususiy didaktika hisoblanadi, ayni vaqtda, u mumtoz adabiyot tarixini o'rganish metodikasi, chet el adabiyotini o'rganish metodikasi, xalq og'zaki ijodini o'rganish metodikasiga nisbatan umumiy metodika vazifasini bajaradi. Xususiy metodikalar umumiy didaktikaga tayangan va uning nazariy umumlasmalariga asoslangan holdagina rivojlana oladi. Ayni vaqtda, har bir aniq fanga tatbiq etilgan didaktik qonuniyatlari o'sha o'quv predmetini o'qitish tajribasidagi o'ziga xoslik bilan boyitiladi, umumiy jihatlarni konkretlashtiradi, har bir o'ziga xoslikda o'qitishning universal jihatlarni namoyon etadi.

Pedagogikaning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining ruhiy-jismoniy xususiyatlarini, ularni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirishdagi o'ziga xosliklarini hisobga olib ish ko'radigan tarmog'i defektologiyadir. Defektologiya bolaning qanday jismoniy nuqsonga egaligi hamda ularga beriladigan ta'lim-tarbiyaning yo'naltirilganligiga qarab tiflopedagogika, surdopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya singari tarmoqlarga bo'linadi. Jahon yoki milliy tarbiya nazariyasi, didaktika fani hamda amaliyoti jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida qanday mazmun-mundarija, shakl-shamoyil kasb etganligi, qaysi usul va shakllardan foydalanib ish ko'rganligi, qanday natijalarga erishganligi kabi masalalar pedagogika tarixi fani tomonidan tadqiq etiladi.

XX asr boshlaridan qiyosiy pedagogika fani pedagogikaning alohida tarmog'i sifatida dunyoga keldi. Unda jahondagi turli xalqlarning pedagogik qarashlari va ta'lim-tarbiya tizimi qiyosiy-genetik yo'sinda bir-biriga solishtirilgan holda o'rganildi. Pedagogikaning bu tarmog'i ta'lim-tarbiya borasidagi eng ilg'or usul va yondashuvlarni solishtirish, maqsadga muvofiqlarini muayyan milliy pedagogik fan va amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. O'zbekistonda hozircha qiyosiy pedagogika



alohida fan sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, bu borada jiddiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Pedagogika inson faoliyatining eng qadimiy turidir. U odam bilan birga paydo bo'lgan va odamning odamligini, uning oila, jamoa hamda jamiyat bo'lib yashashini ta'minlab turgan fan va amaliyotdir. Insoniyat mavjud tajribalarni o'rganish va boshqalarga o'rgatishni yo'lga qo'ya boshlagan vaqtdan, ya'ni pedagogika paydo bo'lganidan buyon hamda shu tufayligina mavjuddir. Dastlab sof amaliy xarakterga ega bo'lgan va insoniyat ko'p yillar mobaynida orttirgan hayotiy tajribalarni yoshlarga qisqa muddatda o'rgatishni ko'zda tutgan. Bu pedagogika udum, odat, an'ana tarzida namoyon bo'lgan. Shuning uchun ham oldin xalq pedagogikasi vujudga kelgan. Chunonchi, o'zbek xalq pedagogikasiga muvofiq, kichik yoshdagilar kattalardan oldin taomga qo'l uzatmaydi, ko'rishish uchun oldin katta qo'l cho'zishi lozim, ota bilan masala talashilmaydi, kattalarga ran qaytarilmaydi va boshqalar.

Odamzodning hayotiy va aqliy tajribasi ortib, turmush kechirish tarzi xilma-xillashib, mehnat taqsimoti yuzaga kelib turli fanlar paydo bo'la boshlashi bilan pedagogika ham inson faoliyatining alohida sohasiga aylandi. Ta'lim va tarbiyaga doir qarashlar tizimi shakllandi. Lekin bular darhol pedagogik nazariy tizimlar sifatida emas, balki milliy fikr tarbiyaga daxldor qarashlar, aqidalar, hikmatlar tarzida namoyon bo'ldi. Yozuv paydo bo'lishi bilan pedagogik qarashlar yozuvga ko'chiriladigan bo'ldi. Antik davrdagi mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya borasidagi fikrlari markazida yetuk insonni shakllantirishga intilish istagi turardi. Shumer, Misr, Xitoy, Hindiston va O'rta Osiyodagi turli madaniy-ma'rifiy obidalar moddiy madaniyat namunalarigina bo'lib qolmay, o'z davridagi buyuk pedagogik meros hamdir. Qadim zamonlarda paydo bo'lgan pedagogik qarashlar ko'proq amaliy xususiyatga ega bo'lsa-da, keyinchalik pedagogikaning alohida fan sifatida shakllanishiga ulkan hissa qo'shdi. Pedagogika insoniyatning axloq-odobi va ma'naviyatigagina emas, balki aqliy rivojiga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgani sababli uning taraqqiyot darajasi jamiyatning ravnaqiga muvofiq tarzda ro'y berdi. Bir qancha mamlakatlarning rivojiga ham, boshqalarining esa qoloqligiga ham ko'pincha o'sha mamlakatdagi pedagogikaning holati sabab bo'lgan. Xususan, Sharq xalqlari o'z vaqtida eng qadimiy va ilg'or pedagogik qarashlar tizimini yaratgan bo'lishlariga qaramay, shu tizimni zamona talablariga muvofiq tarzda takomillashtirib bormaganliklari uchun keyinchalik ilm-fan taraqqiyoti jihatidan qoloq holga tushib qoldilar.

Dunyoda turli xil kasblar juda ko'p, o'qtuvchilik dunyodagi kasblardan farq qilib, pedagoglik kasbi kishilik tarixining butun davomida har bir ijtimoiy formatsiyani qaror



toptirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan eng muhim doimiy shart-sharoitlardan biridir.

Buning sababi shundaki, tarbiya muayyan va eng muhim ijtimoiy ehtiyoj tariqasida juda qadimgi zamonlardayoq vujudga kelgan bo'lib, u yosh avlodni tayyorlashni va pedagogik g'oyalar hamda mussasalarni kishilarning g'oyat zarur talabi qilib qo'ygan. O'qituvchilik kasbi to'xtovsiz o'sib bormoqda, takomillashmokda va yangi mazmun bilan boyimoqda. Pedagoglik mexnati o'z-mazmuni jihatidan bilan huqur dialektik mehnatdir. Pedagoglik kasbining mazmuni va xarakteri obektiv jihatdan muqarrar suratda o'zgaradi: har bir tarixiy davr o'ziga muvofiq pedagogini yaratadi va unga shu jamiyat davr uchun kerakli mutaxasis kadrlarni tayyorlash uchun mas'uliyat yuklaydi. Umuman kishilik jamiyati o'z taraqqiyotida qanchalik olga qarab borsa, tarbiyaviy faoliyat xam shunchalik ko'p ilgarilashadi. Jamiyat tuzumi qanchalik yuqoriab borsa, maktab va o'qituvchining jamiyatdagi roli, ahamiyati ham shunchalik ortadi. Ijtimoiy jamiyatdaolib boriladigan tarbiya va ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshiradigan maktab kishilik jamiyatining progressiv taraqqiyoti tarixida qonuniy bir hodisadir. Xalq pedagogikasi insoniyatning butun o'tmishdagi tarixida to'plagan eng yaxshi tajribalarni yangi ijtimoiy, g'oyaviy va falsafiy asosda ijodiy va tanqidiy nuqtayi nazardan o'zlashtirib oldi.

Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatleri qaror topishi ham tezlashadi. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jaravon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy meyorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning azosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq tasir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika tarixi. Maruza matni. Qo'llanma II qism T., (tuz. S. Nishonova, B. Hasanova) TDPU 2002 y.
2. Pedagogika tarixidan Xrestomatiya (Tuz. O. Hasanboyeva) T., O'qituvchi, 1973.
3. Rajabov. S. Pedagogika faning buyuk allomalari. T. «O'qituvchi», 1990.
4. Hasanov R. K. D. Ushinskiy. (voizga yordam) T. MRDI 1999.
5. Hoshimov K., Nishonova S Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. T., A. Novoiy nomidagi O'z. Res "milliy kutubxona" nashryoti, 2006.